

MUSIQA

FAOLIYAT

ISHLANTMALARI



YOZ ILMARI

KICHIK GULUHI

KICHIK GURUH (ILK YOSH) BOLALARI BILAN MUSIQA FAOLIYATLARINI O'TKAZISHGA DOIR METODIK TAVSIYALAR

Bu guruh yoshidagi bolalar psixologik-fiziologik jihatdan hali to'liq rivojlanmagan, nutqi, xotirasi, tinglash malakasi, ovozi shakllanmagan, e'tiborini bir narsaga jalb qilish

qobiliyati sust, ammo o'ta ta'sirchan va taqlidchan bo'ladilar. Bu yoshda bolalarda tevarak atrofdagi narsalarga qiziqish tobora ortadi. Tarbiyachining shirin so'zlari, sho'x, quvnoq

kuy-qo'shiqlar, o'yinlar ular e'tiborini o'ziga jalb etadi. Musiqa faoliyatida musiqa tinglash, kuylash bolalarda ovoz apparatining shakllanganligi bilan chambarchas bog'langan bo'ladi. Musiqa rahbari qo'shiqni mayin, jonli kuylaydi, so'ng rasmlar, o'yinchoqlar yordamida mazmunini qisqacha hikoya qilib beradi. Savol-javob orqali qo'shiq mazmunini ochib beradi. Dastlab bolalar qo'shiqni ijro eta olmaydilar. Ular takrorlanuvchi jummalarni kuylaydilar, xolos. Bolalarda kuylash holati, talaffuz, ovoz hosil qilish, to'g'ri nafas olish kabi vokal malakalarini shakllantirish isilari boshlanadi. Bolalar musiqa rahbarining qo'shiq kuylashini, musiqiy harakatlarini ko'rsatib berishga harakat qiladilar. Asta-sekin tevarak-atrofga munosabatlarida jiddiy o'zgarishlar ro'y bera boshlaydi. Sujetli-tasvirli o'yinlarda ular kattalarning harakatini kuzatib, real predmet o'rniga o'yinchoqlardan foydalanadilar. Tayoqcha yordamida qo'g'irchoqni ovqatlantiradilar, kubik bilan ko'ylakni dazmoblaydilar. Bolalar o'zlari uchun aniq mustaqil rolli o'yinlar tanlaydilar (ona, haydovchi, shifokor, tikuvchi, sotuvchi). Faoliyat jarayonida har xil xarakterdagi qo'shiqlarni qiziqish bilan tinglaydilar va ularni bir-biridan farqlay boshlaydilar.

Musiqa faoliyatlarini o'tkazishdan ko'zda tutilgan vazifalar quyidagilardan iborat:

- bolalarning sog'lig'ini mustahkamlash, barmoqlarning mayda muskullarini rivojlantirish;
- jamoada biigalikda yurish ko'nikmasini rivojlantirish;
- sensor tarbiyani davom ettirish: (ko'rish, eshitish, sezish, idrok etish);
- bolalarda ijobiy odatlarni shakllantirib borish;
- musiqaga hissiy (emotsional) javob bera olishini tarbiyalash;
- turli musiqa asboblari, magnit yozuvidagi kichik qo'shiq va kuylami tinglashga ishtiyoq uyg'otish;
- bolalarni ertak, hikoya, she'rlarni berilib tinglashga o'rgatish;
- o'yinchoqlar, rasmlarni qiziqish bilan ko'rishga undash;
- bolalarning musiqa ostida asosiy harakat turlari: to'g'ri yurish, yugurish, sakrashni o'rganib olishlariga yordam berish;
- musiqa ohangiga, ritmiga mos harakatlar bajarish, musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirish.

“Tasdiqlayman”

_____ - sonli MTT
direktori _____

2025-YIL YOZ DAVRI KICHIK GURUHGA

_____siga rahbari _____ning

ISH REJASI

№	Oy mavzu	Hafta mavzusi	O'tish joyi	Kichik guruh	Vahti	Izoh
1.	Iyun Baxtli bolalik	1-hafta Bolalik baxtli	Guruh xonasida	«Quvnoq bolalik» raqsini o'rgatish		
				Mavzuni takrorlash		
		2-hafta Hamma bola yasagan	Guruh xonasida	«Hamma bola yasagan» musiqasini tinglash		
		3-hafta Qushlar haqida qo'shimiz do'stimiz	Guruh xonasida	«Gul terdik-gullar» qo'shig'i		
				«Ay-ya-yay qo'shig'i»		
		3-hafta Bog'imizga sayr qilamiz	Guruh xonasida	«Hayvonlar haqida qo'shiq»		
				«Yoz o'yinlar» qo'shig'ini yod olish		
		4-hafta Ertak qaxramonlari mexmonda	Guruh xonasida	«Yoz o'yinlar» qo'shig'ini musiqada aytish.		
		1-hafta 1-hafta Yozgi o'yinlar	Guruh xonasida	«Yozgi o'yinlar» musiqasini tinglang		
				«Yozgi o'yinlar» kuy asosida raqs		

2.	Iyul Quvnoq yoz	2-hafta 2-hafta Quvnoq estafetalar	Guruh xonasida	«Soat qo'shig'i» ni yod olish		
			Guruh xonasida	Shu qo'shiq asosida musiqiy ta-limiy o'yin.		
		3-hafta 3-hafta Ertaklar yaxshilikka yetaklar	Guruh xonasida	«Kitobim qo'shig'i» yod olish		
			Guruh xonasida	«Kitobim qo'shig'i» ni musiqada aytish		
		4-hafta 4-hafta Suv qiroli mehmonda	Guruh xonasida	«Menim mening qiziman» qo'shig'ini yod olish		
			Yozgi ayvonchada	«Menim mening qiziman» qo'shig'ini musiqada aytish.		
			Guruh xonasida	«Menim mening qiziman» qo'shig'ini yod olish		
			Guruh xonasida	«Menim mening qiziman» qo'shig'ini musiqada aytish.		
3.	Avgust Quvnoq va sog'lom bolalar	1-hafta Sabzavot va mevalar	Guruh xonasida	«Gul yaxshi lola yaxshi» qo'shig'ini yod olish		
			Guruh xonasida	«Muzqaymoq» qo'shig'ini o'ylash		
		2-hafta Kattalarga quloq sol	Guruh xonasida	«Vatanim» qo'shig'ini yod olish		
			Guruh xonasida	«Vatanim» qo'shig'ini musiqada aytish		
		3-hafta O'ynlar shaharchasi	Guruh xonasida	«O'ynayman» qo'shig'ini yod olish		
			Guruh xonasida	«O'ynayman» qo'shig'iga raqs		
		4-hafta Zavqli yoz	Guruh xonasida	“Gul yaxshi lola yaxshi ” qo'shig'ini yod olish		
			Guruh xonasida	“Do'ppi kiygan qizlar” raqsi		

Iyun oyi

Oyi mavzusi: Baxtli bolalik

1-Hafta mavzusi: Baxtli bolalik

Mavzu: “Quvnoq bolalik” raqsini o‘rgatish

O‘tish joyi: Musiqiy xonasida

Maqsad:

ta’limiy: “Quvnoq bolalik” raqsini o‘rgatish, harakatlarda musiqa bilan foydalanish, musiqa asboblari bilan tanishish, musiqa asboblari ovozlari farqlashga o‘rgatish, qo‘shiqning mazmuni va qadriyatini bolalar ongiga singdirish, raqs va o‘yinlarda aqliy va estetik qobiliyatini oshirish, ijodkorligini rivojlantirish.

tarbiyaviy: bolalarning o‘zlarining qiziqishini oshirish, atrof olam bilan tanishtirish, barmoq motorik va umumiy harakatlarni bajarish, shovqinli va musiqiy asboblari bilan tanishish, musiqa asboblari va o‘yinchoqlarni avaylab asrash hissin tarbiyalash.

rivojlantiruvchi: bolalarning fikrini rivojlantirish, idroki va hissiyotlarini tarbiyalash, katta va kichik so‘zlarni farqlashga odatlantirish, qo‘shiqlarni aytishga o‘rgatish, musiqiy faoliyatda qatnashish.

Kerakli jihoz: mavzuga oid ko‘rsatmalar, musiqa asboblari va shovqinli musiqa asboblari.

Qo‘llaniladigan usul: ko‘rsatish, bilim berish, tushuntirish, savol-javob, she’riy usul, ijodkorlik, rag‘batlantirish, o‘yinchoqlar bilan o‘yin o‘tkazish.

Faoliyatni borishi:

Musiqqa rahbari: bolajonlar yaxshimisizlar, kayfiyatni yaxshilaymiz. Men sizlar bilan bugun “Quvnoq bolalik” raqsini o‘rganamiz

Bolalar javoblari: Rahmat ustoz

Musiqqa rahbari: Bolajonlar sizlarga men “Quvnoq bolalik” raqsini o‘rgataman. O‘rganishni hohlaysizlarmi?

Bolalar javoblari: ha

Musiqqa rahbari: barakalla bolajonlar unday bo‘lsa birga “Quvnoq bolalik” raqsini birga o‘rganamiz.

Endi kim, “Quvnoq bolalik” qo‘shig‘iga raqsga tushib beradi. Bolalar “Quvnoq bolalik” qo‘shig‘iga raqsga tushib berishadi.

Faoliyat oxirida musiqa rahbari raqsga tushgan bolalarni maqtaydi.

Katta bolalar bo‘lsanglar mohir qo‘shiqchi bo‘lasiz - deb yaxshi tilaklar bildiradi.

Faoliyatni yakunlash: faoliyatda aktiv qatnashgan bolalarni shirin so‘zlar bilan rag‘batlantirib, faoliyatni mustaqil ravishda yakunlaymiz.



Iyun oyi

Oy mavzusi: Baxtli bolalik

2-Hafta mavzu: Qushlar bizning do'stimiz

Mavzu: "Gul terdik-gullar" qo'shiq'ini tinglash.

O'tish joyi: guruh xonasida

Maqsad:

ta'limiy: "Gul terdik-gullar" qo'shiq'ini tinglash, harakatlarda musiqa bilan tanishtirish, musiqa tinglashda fikrlash, qo'shiqlar matni ovozlarini farqlashga o'rgatish, qo'shiq matni haqidagi fikrlarni talqin qilish, raqs va o'yinlarda aqliy va estetik qobiliyatini, irodasini, ijodkorlikni rivojlantirish.

tarbiyaviy: musiqa bo'yida qo'shiqlar tinglash, atrof olam bilan tanishtirish, barmoq motorikasi va jismoniy harakatlarini rivojlantirish, shovqinli va musiqiy asboblari bilan tanishtirish, musiqa asboblari va o'yinlarni o'ynab asrash hissiyotlarini tarbiyalash.

rivojlantiruvchi: bolalarni musiqiy faoliyatda qatnashish, idroki va hissiyotlarini tarbiyalash, kuy va qo'shiqlarni tinglash, qo'shiqlarni aytishga o'rgatish, musiqiy faoliyatini rivojlantirish.

Kerakli jihoz: mavzuga oid ko'rgazmalar, musiqiy asboblari, shovqinli musiqa asboblari.

Qo'llaniladigan usul: ko'rsatish, bilimlarni berish, talqin qilish, savol-javob, she'riy uslub, ijodkorlik, rag'batlantirish, qisqa hikoyalar, ko'rsatish.

Faoliyatni borishi:

Musiqaviy ritmik harakat. Marsh, yugurish, sakrash, shovqinli musiqa asboblari kuyiga moslab qadam tashlash, deysinib yurish, nafas olish mashqlari va marsh musiqasi bilan yakunlab o'z joylarini egallaydilar.

Musiqa rahbari : Qani bolalar aytinglar-chi, musiqa olami bizga nima beradi.

Bola : Faoliyatlar ichida, musiqa quvnoq fandır.
Ohanglar olamining, barcha sirlari jamdir.
Bu faoliyat bizlarga o'yin, raqs, qo'shiqlar ,
Sirlarin o'rgatadi, nazariy bilimlarni,
Jamlashni o'rgatadi.

Musiqa rahbari : Raxmat sizga bolalar, dono zukko lolalar.
Musiqada bolalar etti nota mavjuddir.
Ettita notalardan quvnoq kuylar taralur.
Qani notalar chiqing o'zni bir tanishtiring.

Musiqa ostida notalar chiqadilar.

" DO " nota : Biz etti aka- uka yashaymiz birgalikda.
Tovushqator uyimiz do, re , mi, fa,
Sol, Iya , sidur nomimiz!
Dorboz, doira, donlarda, uchrayman men so'zlarda.
Menda boshlanur ohang, " do "man doim hamohang.
Necha asrdan buyon , biz do'stimiz insonning,
Qutlamoq uchun keldik, bugun jami mehmonni.

RE “ nota :

Mening nomim “re” bo‘lur,”do” kuchiga kuch qo‘shur.
Kuychangman dovyurakman, hamma bilan inoqman.
Biz etti paxlavonmiz, sir asrorga makonmiz.
Necha- necha jumboqni, hal etgan qahramonmiz

“ MI “ nota :

“Mi” dur mening ismim, o‘zimga tushgan jismim.
Sanoqda men uchunchi, kuylarningdir tayanchi.
Sanab hisob qiladi musiqa tirik jon.
Qadim zamondan beri, ishlaymiz tezu oson.

Faoliyat so‘ngida bolajonlar “Gul terdik-gullar” qo‘shig‘ini tinglashadi.

Musiqa rahbari: barakalla bolajonlar birga endi “Gul terdik-gullar” qo‘shig‘iga raqsga tushamiz.

Faoliyat oxirida musiqa rahbari faoliyatga faol qatnashgan bolalarni maqtaydi.

Faoliyatni yakunlash: faoliyatda aktiv qatnashgan bolalarni shirin so‘zlar bilan rag‘batlantirib, faoliyatni mustaxkamlab yakunlaymiz.



veb-saytimiz: Zokirjon.com

**Zokirjon.com veb-sayti orqali o'zingiz uchun
kerakli ma'lumotlarni yuklab oling.**

Zokirjon Admin bilan

**+99891-328-88-38 nomerga telegramdan
yozishingiz yoki telegramdan jek567 izlab
telegramdan yozishingiz so'raladi.**

**Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida
javob beriladi.**

**Kichik guruhlarga yoz davri musiqa faoliyat
ishlanmalarini to'liq holda olish uchun
telegramdan yozing.**




Narxi: 20 ming so'm

Telegram kanalimiz:

@maktabgacha_tt

To'lov uchun: HUMO 9860230104973329

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

**Bu hujjatni hech kimga tarqatmaslik
sharti bilan olishingiz mumkin.**

Sizga bu OMONAT qilib beriladi.

To'liq holda olganingizdan so'ng:

Faqat o'zingiz uchun foydalaning.

**Hech kimga bermang hattoki eng yaqin
insoningizga ham.**

Internet veb-saytlarga joylamang.

**Telegram orqali kanal va gruppalarga
tarqatmang.**

**OMONATGA HIYONAT
QILMANG.**